

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 794 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr	10
Baxtiyor Islamov	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati	12
Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System	18
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar	26
Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	
Yashil budjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari	32
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari	37
Yormatov Ilmidin Toshmatovich	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir	41
Agzamov Shaxboz Akmalovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish	46
A. X. Salamov	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida	50
Dosmuratova Shaxista Kengashovna	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi	57
Axmediyeva Aliya Toxtarova	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari	65
Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari	69
Shamsiyev Nodir Muratovich	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari	74
Shagazatov Oybek bahodirovich	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari	78
Davlatov Sanjar Abdimannonovich	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmada yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari	82
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari	86
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
O'zbekistonda agroutizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida)	91
Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi	96
Nazarova Umida Avazovna	
Turizm faoliyatini daylat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari	100
Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish	105
Mirzayev Musurmon Umidullayevich	

MUNDARIJA CODE RAZANI



Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati.....	110
Fayziyeva Aziza Azamat qizi	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili.....	115
Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish.....	121
Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari	125
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан	131
Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна	
Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	137
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish	143
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	150
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	156
Axrarov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	161
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruva mexanizmini takomillashtirish.....	169
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	172
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности.....	177
Зайнутдинова Умида Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	181
Qurbanov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	186
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	190
Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	195
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	199
Mardiiev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	205
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	209
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	215
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	223
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar	228
Eshimov Alisher Dusmurodovich	



Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi)	236
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	242
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	247
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	252
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	258
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchilagini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish	262
Yuldasheva Shaxnoza Xojakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	268
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruvin hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari	276
Sobirov Otabek Olimjonovich	
Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	279
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	283
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	286
To'ychiyev Otabek Shamshihevich	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	290
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	295
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budget daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	299
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari	304
Abdullahayev Boburjon Akbaralievich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	308
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	312
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	316
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation	321
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	327
Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	331
Kadirova Sharofat Amonovna	
Mekhanizm vnедreniya autsorsingovoy deyatel'nosti v AO "Ўзтемирийўлайўловчи"	334
H. Э. Кахарова	



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	339
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	344
Musyeva Shoira Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari	350
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	355
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati	359
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	364
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	371
Tursunova Shaxnoza Farxon qizi	
Процессы цифровизации АО "Hududgazta'minot"	375
Хусанов Каҳрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	380
Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi	383
Bobayev Isroiljon Abdinabihevich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	388
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	
O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	396
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida.....	399
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	402
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan oltingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari	411
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida)	415
Karimov Bekzodjon Ilhomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	422
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	428
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	434
Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	439
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	



Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	445
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash.....	450
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari.....	455
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budget daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari.....	462
Olikulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili.....	465
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি	471
Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova	
Tijorat banklari o'rtaisdagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	475
M. Yuldasheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	482
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	489
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi	494
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	501
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	505
Karamatova Noiba Husniddinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari	512
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	519
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммединич	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	524
Sultanov Baxram Begdullayevich	
Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	528
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri	536
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	541
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	545
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	550
Shukurov Ilhom Safarboyevich	



Turli mamlakatlarda oliv ta'limni moliyalashtirish yo'llari	557
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi	562
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	566
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	572
Boltayev Abror Saytmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	579
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	582
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	586
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	593
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	
Fundamentals of Innovative Management and its Organizational Control	599
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamatovich	
Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanishning afzalliklari.....	604
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Оценка экономической эффективности использования фотоэлектрической тепловой установки	608
Жураев Ислом Рахматович, Юлдошев Исройл Абриевич, Жураева Зухра Исламовна	
Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro tajriba	614
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich	
Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi	621
Po'latalov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Oliv ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi sabablari	625
Abdukadirova Kamola Azimovna	
Mintaqada turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	629
Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li	
Ichki turizmnii rivojlantirish bo'yicha infrastruktura holati	636
Dehqonov Burxon Rustamovich	
Soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari	642
Kamilov Abror Anvarovich	
O'zbekistonda uylarning energiya samaradorligini oshirish	647
Dodiiev Fozil O'tkurovich	
O'zbekistonda talant menejmentni tatbiq etish istiqbollari	653
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari	658
Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li	
Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda resurs xarajatlarini optimallashtirish: tahlil va boshqarish	663
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich	
Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida sug'urta institutlarining tutgan o'rni	673
K. A. Sharipov, D. Jo'rayev	
Tadbirkorlik nazariyasining evolyutsion talqini	678
Aripov Oybek Abdullayevich	



Enhance Export Potential of Private Entrepreneurship and Small Venture.....	683
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
Mintaqa barqaror rivojlanishini cheklovchi ekologik omillar tahlili.....	690
Adilova Marg'uba Tursunaliyevna	
Improving the Efficiency of Industrial Enterprise Activities in the Age of Digital Technologies	698
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
A study of green marketing practices in the retail industry – Advantages and disadvantages.....	705
Davronova Zilola Gulomovna	
Tijorat banklarining korporativ xizmatlarini transformatsiyalash jarayonini rivojlantirish.....	709
Farmanova O'g'iloy Alikul qizi	
Davlat moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollari.....	715
Maxmudov Azamat Normuradovich	
Xorijiy banklarning moliya injiniringi mahsulotlari va rivojlanish istiqbollari	721
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda turizm xizmatlari imkoniyatlari: muammo va yechimlar	727
Fayziyev Oybek Raximovich, Xalikov Saydilla Abdrazmanovich	
Sanoat klasterlarini shakllanishining simulyatsiya modelini yaratish	734
Xakimov Ziyodulla Axmadovich, Axmedova Rayxona Jasurbek qizi	
Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari	741
Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy texnika va texnologiyalarning xususiyatlari.....	747
Xusanov Ulugbek Nishanovich	
Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti joriy hisobini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar	752
Yusupova Mahfuza Baxtiyor qizi	
Mulkchilikning iqtisodiyotdagи ahamiyatini qiyosiy tahlil qilish (O'zbekiston va Shvetsiya misolida)	757
Odil Norboyev	
Ipoteka krediti riskining ayrim nazariy jihatlari.....	761
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
Xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda O'zbekistonning ishtiroki.....	764
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, Bobobekova Nargiza Baxtiyorovna	
Tijorat banklari fond bozoridagi aksiyalar narxini o'zgarishini ebo moduli orqali aniqlashning ekonometrik tahlili.....	769
Yuldasheva Manzura Ollashkurovna	
Organizational mechanism of sustainable development of the tourism industry, role and application of technologies.....	780
Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich	
Banklarda risklarni diversifikatsiyalashning mohiyati va ahamiyati	787
Baxriddinov Sharofiddin	



XALQARO TURIZM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNDA O'ZBEKISTONNING ISHTIROKI

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra mudiri i.f.d., professor

Bobobekova Nargiza Baxtiyorovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari, Butunjahon turizm tashkiloti va bir qator xalqaro tashkilotlarning sohani rivojlantirish borasidagi faoliyati, O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi hozirgi mavqeい, milliy turizm brendini ilgari surish istiqbollari hamda unga ta'sir qiluvchi omillar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, xalqaro turizm bozori, Butunjahon turizm tashkiloti, turizm va sayohatlar bo'yicha Butunjahon ken-gash (WTTC), xalqaro turizm yarmarkalari, xalqaro turistik tushumlar, turizm infratuzilmasi, turizm turlari.

Abstract: The article describes in detail the development trends of the international tourism market, the activities of the World Tourism Organization and a number of international organizations in the field of development, the current position of Uzbekistan in the international tourism market, the prospects for promoting the national tourism brand, and the factors affecting it.

Key words: Tourism, international tourism market, World Tourism Organization, World Tourism and Travel Council (WTTC), international tourism fairs, international tourism receipts, tourism infrastructure, tourism types.

Аннотация: В статье подробно освещаются тенденции развития международного туристского рынка, деятельность Всемирной туристской организации и ряда международных организаций по развитию отрасли, текущее положение Узбекистана на Международном туристском рынке, перспективы продвижения национального туристского бренда и факторы, влияющие на него.

Ключевые слова: Туризм, рынок международного туризма, Всемирная туристская организация, Всемирный совет по туризму и путешествиям (WTTC), международные туристические ярмарки, доходы от международного туризма, инфраструктура туризма, виды туризма.

KIRISH

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari kuchayib, jahon turizm bozorining raqobatbardoshligi oshib borayotgan sharoitida, pandemiyadan keyin turizm sohasi davlatlar oldiga kuchli talablarni qo'yemoqda. Bunda barcha davlatlar o'zi uchun qulay bo'lgan turizm yo'nalishini, ya'ni bozorda mavqeini egallashga, xizmatlar ko'rsatishning har tomonlama qulay bo'lgan yo'nalishlarini tanlashga harakat qilmoqda. Barcha davlatlar kabi xalqaro turizm bozorida O'zbekistonning ishtiroki, unda milliy turizm brendini ilgari surishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yilning 19-sentyabrdan o'tkazilgan "Ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari"ga bag'ishlangan videoselektorda "Turizmda topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo'liga ish haqi bo'lib boradi, sanoatda va boshqa tarmoqlarda bu 10 foizdan oshmaydi. Turizm sohasida yaratilgan bitta ish o'rnini turdosh tarmoqlarda qo'shimcha ikkita ish o'rnini paydo bo'lishiga turkti beradi. Shuning uchun, ko'p davlatlar sayyoh jalb qilishning yangi-yangi yo'llarini izlayapti", deb alohida ta'kidlab o'tgan edi. Shu jihatdan davlatimiz rahbari tomonidan berilgan topshiriqning ijrosini ta'minlash alohida e'tibor talab etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro turizmni rivojlanish tendensiyalari borasida bir qator nazariyalar berilgan. Jumladan, Ye.P.Chi-lova, I.M.Temkinalarning ta'kidlashicha, xalqaro turizm xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Uni tarmoq sifatida jahon savdo va xizmatlar bozorining bir bo'lagi sifatida qarash mumkin^[1]. A.N.Norchayev tomonidan "Tadqiqotlarimiz natijalari bo'yicha xalqaro turizm rivojlanishini quyidagi bosqichlarga bo'lib chiqdik: birinchi bosqich 1840-1914-yillar (xalqaro turizmni tashkil qilishga ilmiy tomonдан yondashildi); ikkinchi bosqichi 1920-1938-yillarni o'z ichiga oladi (birinchi jahon urushi tugashi bilan turizm qayta tklana boshladi, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalari takomillashuvi, harbiy samolyotlar yo'lovchilarni tashishga moslashtirilishi natijasida turistlar harakati bir necha bor tezlashdi); uchinchi bosqichi 1950-1970-yillar (ikkinchi jahon urushi tugashi bilan qaytadan oyoqqa tura boshladi, turizmga ham integratsion jarayonlar kirib kela boshladi); to'rtinchi bosqichi 1970-1990-yillar (axborot kommunikatsion texnologiyalar, global distribyuter tizimi (Global Distribution Systems), transmilliy kompaniya (TMK)lar turizmga kirib keldi); beshinchi bosqich 1990-2010-yillar "Zamonaviy turizm" tushunchasi qo'llanila boshlandi, turizmnning jahon YAIMda ulushi keskin ravishda ortib bordi, turizmda strategik alyanslar paydo bo'la boshladi, klaster usuli turizmda qo'llanila boshladi); oltinchi bosqichi 2010-yildan hozirgacha bo'lib, turizmda raqamli innovatsion texnologiyalar joriy qilina boshladi, turistlar uchun makondan tashqarida sayohatlar (kosmik turizm) taklif qilina boshladi", deb izoh berilgan^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada xalqaro turizm bozorining rivojlanishi va unda O'zbekistonning ishtiroti bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro va davlat tashkilotlarining ma'lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil va kuzatish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalariga salbiy holatlar doimo ta'sir ko'rsatib kelgan. Xususan, 2019-yilda Xitoyda boshlangan koronavirus pandemiyasi sohaga sezilarli darajada ta'sir qilganligini ko'rish mumkin. Pandemiyaga qadar dunyodagi har to'rtinchi yangi ish o'rni sayohat va turizm sohasida yaratilgan, barcha ish o'rinalarning 10,6 foizi (334 mln. kishi) va jahon YAIMning 10,4 foizi (9,2 trln. dollar) turizmga to'g'ri kelgan.

2020-yilda turizmnning jahon YAIMdagagi ulushi 5,5 foizni tashkil etdi, 2019-yilda bu ko'rsatkich 10,4 foizga teng bo'lgandi. Bu haqda Jahon turizm va sayohatlar kengashi (WTTC) hamda Oxford Economics hisobotida ma'lum qilindi^[3]. 2020-yilda turizm sohasi qariyb 4,5 trln. dollar yo'qotdi, turizmnning jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 49,1 foizga kamaydi. Shuningdek, 62 mln. ish o'rni yo'qotildi. "Ish o'rinalarini yo'qotish xavfi saqlanib qolmoqda, chunki aksariyat ish o'rinalari davlat dasturlari asosida qo'llab-quvvatlanmoqda, turizm va sayohatlar sohasi to'liq tiklanmaydigan bo'lsa, ular ham yo'qotiladi", – deyiladi hisobotda. Shu bilan birga, jahon miqyosida ichki turistlarning xarajatlari 45 foiz, xorijilik turistlarning xarajatlari esa 69,4 foizga kamaygan.

Butunjahon turizm tashkilotining bergen eng oxirgi rasmiy ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, xalqaro turizm 2022-yilda kutilganidan ham kuchliroq natijalarga erishdi, bunga talabning ortishi va ko'plab mamlakatlarda sayohat cheklovlarining olib tashlanishi yoki yumshatilishi sabab bo'ldi^[4]:

- 2022-yilda 900 milliondan ortiq turist xalqaro miqyosda sayohat qilgan, bu 2021-yildagidan ikki baravar ko'p, ammo 2019-yilga nisbatan hali ham 37 foizga kam;
- 2022-yilda xalqaro turizm pandemiyagacha bo'lgan darajani 63 foizga tikkadi;
- Jahondagi eng yirik yo'nalish mintaqasi bo'lgan Yevropa 2022-yilda 585 million tashrifni qayd etdi va pandemiyagacha bo'lgan darajaning qariyb 80 foiziga yetdi (2019-yilga nisbatan 21 foiz). Yaqin Sharq 2022-yilda mintaqalar bo'yicha eng kuchli nisbiy o'sishga erishdi, kelganlar soni pandemiyadan oldingi raqamlarning 83 foiziga ko'tarildi (2019-yilga nisbatan 17 foiz);
- Afrika va Amerika mamlakatlari pandemiyadan oldingi tashrif buyuruvchilarning qariyb 65 foizini tikkagan, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi esa pandemiya bilan bog'liq kuchli cheklovlar tufayli atiga 23 foizga yetgan;
- Submintaqalarga ko'ra, G'arbiy Yevropa (87 foiz) va Karib dengizi (84 foiz) o'zlarining pandemiyagacha bo'lgan darajasiga yaqinroq bo'lgan;
- 2022-yilda turizm xarajatlarida kuchli o'sish kuzatilgan, natijada ko'plab yo'nalishlarda pandemiyagacha bo'lgan daromadlar tiklangan.



- 2022-yilda Yaqin Sharq mintaqalar bo'yicha eng kuchli nisbiy o'sishga erishdi, bunda tashrif buyurganlar soni pandemiyadan oldingi raqamlarga nisbatan 83 foiziga ko'tarildi (2019-yilga nisbatan 17 foiz). Mintaqada EXPO - Dubay ko'rgazmasi va Qatarda bo'lib o'tadigan futbol bo'yicha Jahon kubogi, shuningdek, Saudiya Arabistonida ko'p sonli Haj ziyorati kabi yirik tadbirlar ko'tarinkki ruhda kutib olindi.

Ko'pgina yo'nalishlar bo'yicha xalqaro turistik tushumlarning sezilarli o'sishi qayd etildi, bir qancha hollarda ularning kelish soni kutilganidan yuqori bo'ldi. Bu turistlarning sayohat manzilida uzoqroq qolish muddati, o'z manzilida ko'proq pul sarflashga tayyorligi va qisman infliyatsiya tufayli yuqori sayohat xarajatlari tufayli bir turistga o'rtacha xarajatlarning oshishi bilan qo'llab-quvvatlandi.

2022-yil davomida bir qancha yo'nalishlar, jumladan Turkiya (+40%), Ruminiya (+25%), Meksika (+13%), Portugaliya (+15%), Latviya (+14%), Pokiston, Marokash (ikkalasi +6%) va Fransiya (+1%) kabi davlatlarda turizmdan olingan daromadlar pandemiyagacha bo'lgan darajadan yuqori bo'lganini ma'lum qildi.

Qayta tiklanishni tashqi turizmda ham ko'rish mumkin, bunda 2022-yil davomida 2019-yilga nisbatan -4% Fransiya, Germaniya (-8%), Italiya (-10) kabi yirik manba bozorlaridan kuchli xalqaro xarajatlar kuzatilgan va Amerika Qo'shma Shtatlari (-15%) pasayish, 2019-yilga nisbatan 2022-yilda xarajatlari barqaror o'sayotgan rivojlanayotgan bozorlar qatoriga Qatar (+29%), Hindiston (+10%) va Saudiya Arabiston (sentyabrgacha +7%) kirgan.

Xalqaro turizm 2023-yilda, ayniqsa Osiyo va Tinch okeani mintaqasida pasaygan talab tufayli tiklanishini kuchaytirdi. Butun jahon turizm tashkilotining ssenariylariga ko'ra, 2023-yilda xalqaro sayyoohlar kelishi pandemiyadan oldingi raqamlarning 80-95 foizini tashkil qilgan. Yevropa davlatlari 2023-yilda ijobjiy natijalarni kelтирib chiqargan.

Butunjahon turizm tashkilotining ekspertlar guruhi tomonidan o'tkazilgan so'rovi natijalari shuni ko'rsatadi, respondentlarning 72 foizi xalqaro turizm 2024-yil yoki undan keyinroq ham 2019-yildagi darajasiga qaytmaydi, deb hisoblashadi. Butun jahon turizm tashkiloti ekspertlari ba'zi Yevropa yo'nalishlari va submin-taqalarida turizmni tiklanish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlaydi.

Jahondagi davlatlarning 2022-yildagi turizm sohasi bo'yicha faoliyatini tahlil qilinib, ularning reytingi aniqlanib, bunda Fransiyaning poytaxti Parij 2022-yilda turizmdan eng ko'p daromad ko'rgan shahar bo'ldi. Bunday reyting turli mamlakatlarning turizm sohasi vakillarini birlashtirgan "World Travel and Tourism Council" (WTTC) nodavlat assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilindi. Reytingni tuzishda, turizmnинг yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi, turistlarning sarf-xarajatlari va bu sohada ish o'rinnari yaratilishi baholangan. 2022-yilda Parijning turizm orqali iqtisodiyotga qo'shgan hissasi qariyb 36 milliard dollarni tashkil etgan. Ikkinci o'rinda Pekin (33 milliard dollar), uchinchi o'rinda Orlando (31 milliard dollar) shaharlari joylashgan. Birinchi o'ntalikka Xitoyning yana ikkita shahri – Shanxay va Guanchjou, Amerikaning ikki shahri – Las-Vegas va Nyu-York, shuningdek, Tokio, Mexiko va London kiritilgan.

Mamlakatimizning turizm salohiyatini xalqaro turizm bozorida reklama qilish, xorijiy turistlarni jalb qilish borasida ko'pgina ijobji ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi ishtirotiga turli ijobjiy omillar bilan birlgilikda salbiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan, xususan koronavirus pandemiyasi ham sohaga jiddiy ta'sir ko'rsatgan edi. 2020-yilda mamlakatimizga 7 million nafardan ortiq xorijiy sayyoohlar tashrifi kutilgan bo'lsada, biroq, ularning soni 1,5 million nafardan oshmadidi. Turizm xizmatlari eksporti

261 million AQSH dollariga tushib ketdi. Turizm va unga yondosh sohalardagi tadbirkorlik subyektlari moli-yaviy jihatdan qiyinchiliklarga duch keldi.

Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro turizm bozorlaridagi ishtiroti bo'yicha berilgan yana bir eng oxirgi rasmiy ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

2023-yil 12 oy davomida mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 6,6 million nafar (yillik reja-7,0 mln nafar)ni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan;

Bunda, qo'shni davlatlardan 5,35 million nafar (umumiy turist soniga nisbatan 80,7 %); qolgan MDH davlatlaridan 763,1 ming nafar (11,5 %); boshqa davlatlardan 513,7 ming nafar (7,8 %) xorijiy turistlar tashrif buyрган^[5].

Turizm xizmatlarining eksporti ham o'z navbatida 2019-yilga nisbatan 2020-yilda 61,6 foizga, 2021-yilda 32,7 foizga kamaygan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 9,7 ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Biroq ohirgi ikki yilda o'zgarishlar ijobjiy taraifa o'zgargan, ya'ni 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 75,4 foizga, 2022-yilda esa 2021-yilga nisbatan 179 foizga oshgan, 2023-yil davomida turizm xizmatlarining eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. AQSH dollar (yillik reja-2,0 mlrd dollar)ni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshganligini kuzatish mumkin.

Xalqaro turizm bozorida milliy turizm salohiyatini ilgari surish maqsadida xalqaro yarmarkalarda ishtirot etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Milliy turizm salohiyati Toshkentda har yili tashkil etib borilayotgan xalqaro turizm yarmarkasidan tashqari boshqa davlatlarda ham targ'ib qilinmoqda. O'zbekistonning turizm



salohiyatini jahon turizm bozorida reklama qilish va xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik qilish maqsadida 2023 yilda ham bir qator xalqaro turizm ko'rgazmalarida ishtirok etdi. Ispaniyaning Madrid shahridagi "FITUR-2023", Germaniyaning Berlin shahridagi "ITB Berlin-2023", Rossiyaning Moskva shahridagi "Puteshestviya i turizm MITT-2023", Ozarboyjonning Boku shahridagi "AJTF-2023", BAAning Dubay shahridagi "ATM-2023", Koreyaning Seul shahridagi "SITIF-2023", Malayziyaning Kuala-Lumpur shahridagi "MATTA Fair-2023", Yaponiyaning Osaka shahridagi "Tourizm Expo Japan-2023", Fransiyaning Parij shahridagi "IFTM Top Resa-2023", Italiyaning Rim shahridagi "TTG Rimini -2023", Buyuk Britaniyaning London shahridagi "World Travel Market 2023" xalqaro turizm ko'rgazmalari shular jumlasidandir.

Butunjahon turizm tashkiloti sohaga doir xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rnnini yaxshilash maqsadida turizm tez rivojlanayotgan mamlakatlar ro'yxati reytingida 2019-yildagi 4 o'rindan 2026-yilda 3 o'ringa erishish, sayyoohlар uchun xavfsiz mamlakatlar reytingi (180 mamlakatlar orasida)da 2020-yildagi 46 o'rindan 2026-yilda 20 ta eng xavfsiz mamlakatlar ro'yxatiga kiritish, Solo Travel Safety Report reytingida yolg'iz sayohat qiluvchi turistlar uchun xavfsiz mamlakat reytingida 2019-yildagi

80 o'rindan 2026-yilda kamida 50 o'ringa erishish, Global Muslim Travel Index halol turizm reytingida 2020-yildagi 7 o'rindan 2026-yilda 3 o'ringa erishish, Sayohat va turizmnning raqobatbardoshligi indeksida O'zbekistonni 2026-yili birinchi 50 talikka kiritish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, Butun jahon turizm tashkiloti doirasida Yevropa mintaqaviy komissiyasiga kiruvchi davlatlar bilan turizm sohasida aloqalarni mustahkamlash hamda xalqaro ahamiyatga ega tadbirlarni O'zbekiston tonda muntazam o'tkazib borish rejallashtirilgan. Jumladan, 2023-yilda UNWTO Bosh Assambleyası XXV sessiyasini Samarqand shahrida o'tkazish bo'yicha O'zbekiston nomzodligini ilgari surish yuzasidan tegishli tashkiliy ishlar olib borildi.

O'zbekistonning turizm salohiyati xorijiy ommaviy vositalari, ijtimoiy tarmoqlarida va xalqaro reytinglarda e'tirof etilmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarining "Time" jurnali, "Travel Lemming" va "Forbes Advisor" va "The New York Times" onlayn sayohat qo'llanmalari, Britaniyaning mashhur "British Muslim Magazine" jurnali, "Independent", "Rough Sides", "Dorling Kindersley", "Times Travel" va "Lonely Planet" onlayn nashrlari, Rossiyaning "Kursiv" nashri kabi nufuzli nashrlarda O'zbekistonning turizm salohiyati va imkoniyatlari haqida ijobjiy maqolalar chop etildi.

"Jahon muslimon sayohati indeksi" xalqaro reytingida 2023-yilda O'zbekiston yettita pog'ona yuqorilab yangi paydo bo'layotgan eng kuchli islomiy sayohat destinatsiyasi sifatida alohida e'tirof etildi [6].

O'zbekiston "Wegoplace" sayohatchilar portalı tomonidan dunyoning eng xavfsiz 5 mamlakatidan biri hamda "CrescentRating" (Singapur) va "Mastercard" tashkilotlari tomonidan dunyoning ziyorat turizmi bo'yicha eng ommabop 10 mamlakatidan biri sifatida e'tirof etildi [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Albatta yuqoridagi loyihalar, chora-tadbirlarning tashkil etilishi va xorij tajribalarining o'rganilishi, O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida mavqeini oshishiga olib keladi.

Xalqaro turizm xizmatlari bozorining holati, xorijiy davlatlarning tajribalari asosida quyidagi rivojlanish tendensiyalari aniqlandi va O'zbekiston Respublikasining turizm sohasi vakillari uchun quyidagi jihatlarni e'tiborga olishni tavsiya qilish mumkin:

- turizm sohasini raqamlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda, zero rivojlangan davlatlardagi aholining kattagina qismida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fe'l-atvor va dunyoqarashda katta o'zgarishlar kuzatilmoqda;
- bugungi kunda jahon turizm bozorida quyidagi maqsadli turizm ko'rsatmalari ustun turadi: yangi taasurotlarning paydo bo'lishi va ularning tezda o'zgarishi, guruhli yoki ikki kishi bo'lib dam olish, ichki sabablar tufayli yoki tashqi ta'sirlarsiz o'z xohish- istaklarini tezda qondirishga intilish, tabiat va landscape go'zalligidan bahra olish;
- aholi moddiy farovonligining oshishi va turizmga ajratilgan mablag'larning ko'payishi;
- ijtimoiy-demografik o'zgarishlar, sayohatlarga chiqish uchun vaqt va zarur daromadga ega bo'lgan kishilar sonining oshganligi;
- mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy aloqalarning mustahkamlanishi;
- shaharlashuv jarayonlarining kuchayishi, bu potensial turistlar sonini ko'paytiradi;
- aholining ma'lumot olish darajasining oshganligi natijasida ularning bilim va axborotlar olishga nisbatan faoliagini kuchayganligi;



- transport infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvi;
- bojxonadagi rasmiyatchiliklarning, viza munosabatlarining soddalashtirilishi va ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi namoyon bo'lmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Чилова Е.П., Темкина И.М..Рынок международных туристских услуг. –М. 2010. –С. 87.
2. Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari//Doctor of science dis-sertatsiyasi. –Toshkent. –2021-y.
3. <https://wtts.org>
4. World Tourism Barometr Volume 21. issue1. –januare 2023
5. <https://uzbektourism.uz/cyr>
6. <http://www.uzbektourism.uz>
7. <http://www.unwto.org>

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.